

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lim talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике.....	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучении иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Анкетирование как метод исследования использования ИТ технологий в образовательном и тренировочном процессе	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlarini.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevtik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilmga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari.....	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash.....	303



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK PEDAGOGLARNING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI****РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ
МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ****THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE
DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE EDUCATORS****Toshboltaev Faxriddin O'rinboevich** 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak pedagoglarning pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologik tizimi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni tahlil qilingan.

Аннотация

В статье изучены теоретико-методологические основы развития методической подготовки будущих педагогов на основе интеграции педагогических и информационных технологий, технологическая система развития методической подготовки будущих учителей информатики. Также проанализирована роль педагогических и информационных технологий в развитии методической подготовки будущих педагогов.

Abstract

In the article, the theoretical and methodological foundations of the development of methodical training of future pedagogues based on the integration of pedagogical and information technologies, the technological system for the development of methodical training of future informatics teachers are studied. Also, the role of pedagogical and information technologies in the development of methodological training of future pedagogues was analyzed.

Kalit so'zlar: pedagog, pedagogik va axborot texnologiyalari texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, integratsiya, metodik tayyorgarlik.

Ключевые слова: педагогические, педагогические и информационные технологии, совершенствование, педагогические, технологические, модель, мониторинг, дидактика, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент, интеграция, методическая подготовка.

Key words: pedagogic, pedagogical and information technology technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment, integration, methodical preparation.

KIRISH

Jahonda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli texnologiyalar imkoniyatlarining kengayishi integratsion ta'lim muhitini yaratishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. Bu esa ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga sharoit yaratish orqali «blended learning» (aralash ta'lim, an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirish) ta'limini yaratish zaruratini ortirib yubormoqda. Bunga sabab sifatida bugungi ta'lim «sinfda faqatgina tinchlikni ta'minlaydigan oddiygiyna qurilma emas»ligi, «intizomga o'rgatadigan ijtimoiy institut» ham emasligi, uning axborotlashgan jamiyatda yangi strategik vazifalari borligi, shu bois uzluksiz ta'lim tizimining metodik imkoniyatlarini takomillashtirish va bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi vositasida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak pedagoglarning pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishning turli ko'rinishlari, integratsiya yondashuv asosida tayanch kompetentsiyalarni rivojlantirishga doir izlanishlar M.N.Ataqulova, S.S.Babadjonov, N.A.Kayumova, N.A.Muslimov, M.T.Mirsolieva, J.A.Hamidov, J.R.Turmatovlar tomonidan tadqiq etilgan. Bo'lajak informatika pedagoglarning metodik tayyorgarligini aniqlash bo'yicha A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, A.X.Pardaev, U.Yu.Yuldashev, F.M.Zakirova, B.B.Mo'minov, R.R.Boqiev, N.I.Taylaqov, A.G'.Hayitov, F.R.Muradovlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Metodik tayyorgarlik" tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi ta'riv va ilmiy tadqiqotlarni ko'rib chiqsak, rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda "metodika" atamasi birinchi marta 1783-yilda F.I.Yankovichning ishlarida uchraydi. Tayyorgarlik atamasi esa, S.I.Ojegov va N.Yu.SHvedovning izohli lug'atida quyidagicha talqin qilinadi: 1) biror bir narsa uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'rganish, shakllantirish; 2) biro kishi egallagan bilimlar⁵⁶. Demak, tayyorgarlik – ta'lim jarayoni va uning natijasidir. Bunda o'qitish insonga ta'lim berish maqsadida yoki uning ma'lum kasbiy ixtisosini egallashi maqsadida amalga oshirishi mumkin. Birinchi maqsadga erishish avvalo ma'lum bilimlar tizimini va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishni nazarda tutuadi. Ikkinchi maqsadda ko'pincha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali erishiladi.

Metodik kompetentlik bo'lsa, pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil yetish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llashni anglatadi. Umuman olganda, kompetentsiya – ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir.

Rus olimi V.V.Malev zamonaviy metodik tizimning xarakterli xususiyatlarini quyidagicha: "ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalash-tirish lozimligi; nazariy va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi va birligiga erishish; o'quv materialini tez sur'atda, yuqori darajada o'rgana olish; yuqori faollik va talabalarning yetarlicha mustaqil faoliyatiga erishish; individual va guruhli faoliyatning o'zaro birligi ta'minlanishi; o'quv jarayonining texnik vositalar bilan to'liq ta'minlanganligiga erishish;turli fan, mavzularni o'rganishda kompleks yondashuvning ta'minlanishi" sifatida tasniflaydi va ta'rifini shakllantiradi.

Metodik ishlar ma'lum ma'noda, uni individualizatsiya va differentsiatsiyasi sharoitlarida ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish bo'yicha pedagoglar talablarini qondirishi mumkin. Metodik ishlarni tashkil etish differentsiallashtirilgan asosda qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga asoslangan, eng avvalo, hayotiy va professional ustanovkalar, qadriyatli yo'nalganlik, tajriba va pedagoglarning professionalizmini ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish ishlari bo'yicha hayotiy zaruratlar hisobga olinadi.

Tadqiqotchi olim SH.Ibragimova fikricha, metodik tayyorgarlik – "pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llashni anglatadi". Bundan tashqari, V.A.Adolf va V.A.Slasteninning fikriga ko'ra, metodik kompetentlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega va o'z mohiyatiga ko'ra u yoki bu fanni o'qitishning aniq qurish masalalari bo'yicha kengaytirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi. Buning uchun esa, pedagogik jarayonlarni zamonaviylashtirish talab etiladi.

Pedagogik yangiliklarni zamonaviylashtirish yangilanayotgan jarayonning tarkibi va texnologiyasini zamon talablari asosida turli takomillashtirishlarni kiritish yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Metodik tizimning takomillashtirilishi bir tomondan ta'lim sohasi va jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishga hissa qo'shsa, ikkinchi tomondan tez o'zgaradigan dunyoda uzluksiz ta'lim tizimida informatika pedagoglarini tayyorlashning mazmunan to'ldirilishi yangilanishi, zamonaviy bilimlar bilan doimiy to'ldirilib borilishiga erishiladi.

Metodik tizimning mazmunini takomillashtirish uchun talabalarga: o'rganilgan ob'ekt va xodisalarni modellashtirish, loyihalashtirish va fan mavzularini metodik tizim sifatida o'rgatib borish; informatikani o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, metodlar, vositalar va axborot

texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib borish; informatikani o'qitishda fanlararo bog'liqlik, metapredmetli yondashuvdan foydalanishni shakllantirish; pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta'lim resurslari va elektron ta'lim muhitini yaratish va undan foydalanishni o'rgatish; informatika pedagogsini metodik tayyorlashda psixologo-pedagogik, nazariy, amaliy va texnologik tayyorligini shakllantirish; talabalarni innovatsion, loyihalovchilik va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga o'rgatib borish talab etiladi va bu orqali bo'lajak informatika pedagogsining metodik tayyorgarligi oshib boradi.

Tadqiqotchi olim N.Qayumova fikricha, "tabalarga informatikadan ta'limning tashkiliy shakllari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardan tashkil topib, auditoriya dars mashg'ulotlari shakllari asosan uch qismdan: nazariy ta'lim (ma'ruza) va amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'uloti shakllarida olib borilishi, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar: mustaqil ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy, to'garak ishlari, turli bahs-munozara kechalari, soha fidoyilari bilan uchrashuv va hokazolar bo'lishini tushuntirib yetkazish lozim. Informatikadan ta'limning tashkiliy shakllarining samaradorligiga erishish uchun ilgari loyihalashtirish zarur bo'ladi. Ta'limiy loyihalar pedagog tomonidan tayyorlanadigan dars ishlanmalari, texnologik xaritalar, o'quv-uslubiy majmualarda o'z aksini topadi". Bu orqali bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ularni informatikadan ta'limni to'g'ri tashkil eta olishga o'rgatish mumkin bo'ladi. Mashg'ulotning texnologik xaritasi dars jarayonining har bir bosqichida pedagog va talabalar faoliyatini vaqt me'yorlari bo'yicha loyihalashtirishni belgilab olish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotchi olim N.Qayumova o'z tadqiqotlarida metodik tizimning tashkiliy shaklini takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif qiladi: "informatika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan darslari (matematika+ informatika, fizika+informatika, geometriya+informatika, musiqa+informatika va h.k)ni tashkil etish; mashg'ulotlarni konferentsiya, bahs munozara, seminarlar shaklida, mashg'ulotda masofali ta'lim elementlaridan, Moodle dasturidan foydalanib tashkil etish uslubiyotini shakllantirishga; ma'ruza mashg'ulotlarini muammoli ma'ruza, ma'ruza ikkovlon, xatoli ma'ruza, vizual ma'ruza, ma'ruza-maslahat, ma'ruza-matbuot konferentsiya, ma'ruza-tadqiqot ko'rinishlarida tashkil etishga; ta'lim shakllarini loyihalashda ijodiy yondashish, kreativlik, turli qobiliyatlar, pedagogik mahoratni va hokazolarni namoyon etish kabilarni o'rgatib borish zarur". Bu bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantiribgina qolmasdan, ularni kreativ yondashuv asosida innovatsion metodik faoliyatni yo'lga qo'yishlariga imkon beradi.

XULOSA

Shuningdek, pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika pedagogini tayyorlashning metodik tizimining metodlarini takomillashtirish uchun talabalarga: "informatika fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari, ularning integratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanishni o'rgatib borish; interfaol metodlarni tahlil va tanlash tamoyilidan foydalanib informatika mavzusiga moslab qo'llashni o'rgatish; informatika mavzularini o'qitishda foydalaniladigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va foydalanishga o'rgatish; o'qitishda kirib kelayotgan innovatsiyalarni va innovatsion metodlarni o'z pedagogik faoliyatiga olib kirishga o'rgatish; pedagogik va axborot texnologiyalari, ularning integratsiyasidan foydalanishni shartli refleksga aylantirib borish ni o'rgata olish, ularda muntazam o'z bilimlarini oshirib borishga, metodik tayyorgarligini rivojlantirib borishga o'rgatish, shuningdek, ularni integratsion ta'limni samarali tashkil eta olishga ham tayorlash zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ибрагимова Ш.О. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида методик компетентликни ривожлантиришга инновацион ёндашув. "Таълим ва инновацион тадқиқотлар" журнали 2021 йил №3. –Б. 178.
2. Каюмова Н. А. Олий таълим тизимида бўлажак информатика ўқитувчиларини тайёрлашнинг методик тизимини такомиллаштириш / Замоновий таълим журнали. 2019. № (85) –Б. 28-29.
3. Каюмова Н.А. Касб-хунар коллежларида интеграциялашган дарсларни ташкил этиш. «Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ахборот-коммуникация технологиялари асосида ривожлантириш муаммолари» Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. - Қарши, 2012. -299-301-б.
4. Каюмова Н.А. Ўқитишнинг ахборот-таълим тизими шароити ва унда ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси ўқитувчиларини тайёрлаш. – Т.: «Фан ва технология», 2015. -192-б.
5. Малев В.В. Общая методика преподавания информатики. Учебное пособие. - Воронеж: ВГПУ, 2005. - С. 271с. <http://hosting.vspu.ac.ru/~mvv/mpe/mpe-uch.htm>
6. Слостенин, В.А. Введение в педагогическую аксиологию. – Москва.: Издательский центр «Академия», 2003.